
TUMAN HOKIMINING NAVBATDAGI QABULI O'TKAZILDI

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan va bugungi kunda hayotimizning ajralmas bo'g'iniga aylangan ushbu tamoyil xalqimizning jamiyatga, davlatga ishonchini mustahkamlash, tom ma'noda hayotdan rozi bo'lib yashashiga xizmat qilmoqda.

Tuman hokimi I. Novikovning navbatdagi qabuli ham aynan shu maqsadda tashkil etildi.

Ushbu qabul tuman Xalq qabulxonasida o'tkazilib, tuman hokimi o'rinbosarlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari hamda fuqarolar qatnashdi.



Qabulda fuqarolar asosan, yangi cheklardagi ko'chalarni shag'allashtirish va elektr tayanch ustuni o'rnatish, farzandlarini MTMga joylash, dehqonchilik uchun yer olish singari turli masalalarda murojaat qildilar. Ushbu murojaatlarning aksariyati joyida hal qilingan bo'lsa, atroflicha o'rganish talab etiladigan murojaatlar bo'yicha mutasaddi rahbarlarga aniq topshiriqlar berildi.



Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-02-26 08:59:08